

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	Ipoteka kediti - "Royal Residence"
Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi Qarz oluvchisi bo'lgan, 18 yoshga to'lgan va 60 yoshdan oshmagan (60 yosh inobatga olinadi) jismoniy shaxs.
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm.
Kredit miqdori	Uy-joy narxining 75 foiz miqdorigacha.
Kredit maqsadi	"Royal Residence" MChJ tomonidan qurilgan uy-joy sotib olish uchun
Kredit muddati	Ipoteka kreditining 420.0 mln.so'mgacha qismi uchun: - 12 oy imtiyozli davr bilan, 240 oydan oshmagan muddatgacha; Ipoteka kreditining 420.0 mln.so'mdan oshgan qismi uchun: - Imtiyozli davrsiz, 180 oydan oshmagan muddatgacha;
Taqdim etish shakli	Investitsiya shartnomasiga asosan "Royal Residence" MChJ tomonidan qurilayotgan ko'p qavatli uydan kvartira sotib olish uchun:
Boshlang'ich to'lov	Sotib olinadigan kvartira umumiy qiymatining 25 foizidan kam bo'lmagan miqdorda
Foiz stavkasi	• Garov ta'minot xujjatlari rasmiylashtirilgan muddatga qadar: - Ipoteka kreditining 420.0 mln.so'mgacha qismi uchun: yillik – 23.0 %; - Ipoteka kreditining 420.0 mln.so'mdan oshgan qismi uchun – yillik – 26.0 %; • Garov ta'minot xujjatlari rasmiylashtirilgandan so'ng: - Ipoteka kreditining 420.0 mln.so'mgacha qismi uchun – O'zbekiston resublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi + 4%; - Ipoteka kreditining 420.0 mln.so'mdan oshgan qismi uchun – O'zbekiston resublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi + 12%; <i>(Garov ta'minot xujjatlari rasmiylashtirilgan muddatga qadar mablag'lar Bankning o'z mablag'lari hisobidan, Garov ta'minot xujjatlari rasmiylashtirilgandan so'ng, ipoteka kreditining 420.0 mln.so'mdan oshmagan qismi Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi).</i>

Talab etiladigan hujjatlar	- Qarz oluvchi va Birgalikda qarz (mavjud hollarda) oluvchi(lar)ning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash guvohnomasi va boshqalar). - Qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan maxsus tarmoqlar orqali elektron shaklda mustaqil ravishda olinadi. Bunda daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar kamida oxirgi 6 (olti) oy uchun hisoblandi. Agar Qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlarini aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, o'rtacha oylik daromadlarini va boshqa daromad manbalarini tasdiqlovchi hujjatlar Qarz oluvchidan talab qilinishi mumkin. - O'zini o'zi band qilganlik to'g'risidagi guvohnoma. (kredit o'zini-o'zi band qilgan shaxslarga ajratilganda); - O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligida qonunchilikda belgilangan tartibda xisobga qo'yilgan ulush kiritish asosida qurilishda ishtrok etish to'g'risidagi shartnoma (investitsiya shartnomasi); - Kredit hisobiga sotib olinayotgan ob'ekt joylashgan ko'p qavatli turar-joyni qurish uchun vakolatli organ tomonidan ruxsatnoma mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar (hokimning qarori va boshqalar); - Qarz oluvchi nomiga ochilgan omonat hisob-varag'ida pul mablag'lari (Boshlang'ich badal) shakllantirilganligi to'g'risidagi bank ma'lumotnomasi (kredit bo'limi xodimi qarz oluvchining nomiga bankda ochilgan omonat hisob-varag'ida pul mablag'larini shakllantirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ABS tizimidan oladi); - Kredit qaytarilishini ta'minlovchi hujjatlar; - Sotib olinadigan kvartiraning kadastr reestridan ko'chirma (<i>kvartira qarz oluvchining nomiga rasmiylashtirilgan so'ng</i>); - Zarur hollarda qo'shimcha hujjatlarlar talab etilishi mumkin.
Kredit ta'minoti	• Asosiy ta'minot – kredit hisobiga sotib olinadigan ko'p qavatli uydan kvartira; Kredit hisobiga sotib olinadigan ko'p qavatli uydan kvartira Qarz oluvchining nomiga o'tkazilib, kadastr hujjatlari rasmiylashtirilishiga qadar: • “Royal Residence” MCHJ tashkilotining kafilligi; • Maqsadli jamg'arma garov omonati shartnomasi; • Sug'urta tashkilotining kredit va foizlar qaytmaslik xavfini sug'urta qilish polisi; Kredit hisobiga sotib olinadigan ko'p qavatli uydan kvartira Qarz oluvchining nomiga o'tkazilib, kadastr hujjatlari rasmiylashtirilgandan so'ng: • Kredit hisobiga sotib olinadigan ko'p qavatli uydan kvartira. Ushbu sotib olinadigan ko'p qavatli uydan kvartira ta'minot sifatida kredit miqdorining 125 foizdan kam bo'lmagan qiymatda garov ta'minoti sifatida qabul qilinadi. Kredit hisobiga sotib olinayotgan uy-joy Garov reestri va tegishli tizimlarda yozuvlar qayd qilinib taqiqqa qo'yiladi;

	Bankka aloqador bo'lgan shaxslarga ajratiladigan kreditlar bo'yicha ta'minot O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan miqdorda qo'shimcha ravishda qabul qilinadi.
Kreditni qaytarish tartibi	Kredit va hisoblangan foizlarni to'lash kredit shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet yoki differensial to'lov usulida amalga oshiriladi.
Qo'shimcha shartlar	* Ushbu shartlar asosida kredit ajratish bo'yicha qaror qilish vakolati Chakana kreditlash boshqarmasi Anderrayting bo'limiga beriladi. * MIB joriy qarzdorligi bo'lmasligi.